



XITOIY VA O'ZBEK TILLARIDA FE'L FRAZEOLOGIZMLARINING
STRUKTUR TAHLILI

Xasanova Shaxzoda

Oriental universiteti o'qituvchisi

Orcid 0000-0001-6517-0252

E-pochta: xasanovashaxzoda@gmail.com

Annotatsiya: *Frazeologizm tilning boshqa odatiy so'zlardan farq qilishi va alohida adabiy til meyorlariga ega yaxlit, shuningdek o'zinig kelib chiqish tarixiga ega, bo'linmas turg'un birikmalardir. Xitoy va o'zbek tillari turli til oilalariga tegishli bo'lgani bois undagi leksik-frazeologik birliklar kelib chiqish nuqtai nazaridan farqlilik kasb etadi va bu ikki til orasida badiiy asarlarni tarjima qilishda tarjimondan o'ta ehtiyotkorlikni talab qiladi. Shunga qaramay frazeologik birliklar juda ko'p o'xshash xususiyatlarga ham ega. Shu bilan birga maqolada jahon tilshunosligida tadqiqot ishlari tarixiy-qiyosiy, sistem-struktur hamda antroposentrik yo'nalishlarda keng ko'lamda olib borilayotganligi til taraqqiyoti, unda yuz beradigan o'zgarishlarni tadqiq qilish imkoniyatiga ega ekanligi, har bir milliy tilda uchraydigan leksik-stilistik, frazeologik va grammatik birliklarni qiyosiy aspektda o'rganish orqali qiyoslanayotgan tillarning o'ziga xos ravishda tizimlashtirish, har ikkisi uchun umumiy va farqli jihatlarni aniqlash ham muhim ahamiyat kasb etishiga e'tibor qaratilgan.*

Kalit so'zlar: *成语, fe'l frazeologizmlar, antroposentrik, ma'no butunligi, aforizmlar, iboralar,*

Turg'un birikma – bu barqaror so'z birikmasi, ya'ni butun birikma uyg'unlashgan ma'noda va birikma ma'nosi ayrim birikma tarkibidagi so'zlar ma'nosidan yaratiladi. Turg'un birikmaning umumiy ma'nosi asosida oson anglashiladigan so'z yotadi. Uning tarkibidagi ayrim so'zlar - mazmunan tobe va birikma tarkibidagi so'zlarning har-birining ma'nosi umumiy ravishda birlikka bo'ysundiriladi. Turg'un birikmalar o'z nomidan ko'rinib turganidek o'zaro bog'lanishning eng yuqori bosqichini namoyon etadi. Tarkibiy qismlarning ma'nosi butun ifodaning ta'sirchan xususiyatlari (xossalari) va ifodalilik ma'nosini qamrab oladi. Turg'un birikmalar har bir tilda aniq shakllangan bo'ladi va boshqa tillarga tarjima qilish jarayonida aynan so'zma-so'z tarjimini bermaydi. Turg'un birikmaning o'ziga xos misoli, ta'sirchan so'zlashuv nutqiga xos bo'lgan ifoda ekanligidir.⁶⁹ Barqaror birikmalar nutqqa tayyor holda olib kirilishi, tarkibiy qismlarning barqarorligi belgisiga ko'ra umumiylikni tashkil etsa ham, ma'no butunligi nuqtayi nazaridan turlichadir. Shunga ko'ra barqaror birikmalar quyidagi guruhlariga bo'linadi:

1) Frazeologizmlar.

⁶⁹ A.Primov, X.Qodirova "Tilshunoslikning dolzarb muammolari" Urganch – 2019, 71 – bet



2) Maqol va matallar.

3) Aforizmlar

Odatda, frazeologizmlar tildagi erkin soʻz birikmalari asosida hosil boʻladi. Biroq ular koʻchma maʼno kasb etib, komponentlari oʻzaro birikib yaxlit holda qoʻllanilishi natijasida singib ketadi. **Masalan:** joyiga keltirmoq, oʻrniga qoʻymoq iboralari erkin birikmalarni eslatadi. Lekin ular koʻchma maʼnoda qoʻllanib, “丁钩儿用鸡巴破案。”, (*Dīng gōu er yòng jībā pò'àn*) maʼnolariga ega boʻlgan. Frazeologizmlarning koʻchma maʼnolari nutq situatsiyasi yoki kontekst yordamida oydinlashadi. Frazeologizmlar turli tillarda oʻsha xalqning baʼzi urf-odatlarini aks ettiradi. Ularni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishda iboraning komponentlarini soʻzma-soʻz agʻdarmay, toʻgʻri keluvchi iboralardan foydalaniladi.

Frazeologizm (frazeologik birlik) – bu semantik jihatdan bogʻlangan soʻz birikmalar va gaplarning umumiy nomlanishi boʻlib, shaklan oʻxshash boʻlgan sintaktik strukturalardan farqli ular fikrni tashkil etishda soʻzlar tanlanishi va ularning kombinatsiyasining umumiy qonuniyatlariga muvofiq amalga oshirilmaydi, balki nutqda belgilangan semantik struktura va muayyan leksik-grammatik tarkibning oʻzaro munosabati bilan aks ettiriladi.⁷⁰

Syuy Zongcai, Ying Jyunling, tarjima nuqtai nazaridan qiziqish tugʻdiruvchi xitoy tilida quyidagi frazeologizm turlarini ajratib koʻrsatadi:

惯用语 guanyongyu – «koʻp qoʻllanadigan jumla» (uch iyeroglifliklar);

Masalan: 过日子 guo rizi – hayot kechirmoq, 打光棍 da guanggun – boʻydoq boʻlmoq. Maskur iborani agar mavzu doirasida tahlil qiladigan boʻlsak 打光棍 iyeroglifi tarkibida inson tana azolariga doir 打 da qoʻl kaliti mavjud. Bundan tashqari 炒鱿鱼 chao you yu kimnidir xaydash, yoʻqotish degan maʼnoni anglatadi. Soʻzma soʻz tarjima qiladigan boʻlsak kalimarni qovurish degan manoni beradi.⁷¹

• 成语 chengyu – «turgʻun iboralar» (toʻrt iyeroglifliklar);

Masalan: 一意孤行 yiyi gu xing - oʻzboshimchalik bilan harakat qilmoq, 挺胸抬头 ting xiong tai tou koʻngli, koʻkragi togʻdek koʻtarilmoq degan maʼnoni ajratadi va bu 成语 da inson tana azolaridan 头 tou bosh soʻzi ishlatilmoqda.

俗语suyu – «maqol va matal» (谚语 yanyu – «maqol», 俗话 suhua – «matal»). 工欲善其事, 必先利其器 Gong yu shan qi shi, bi xian li qi qi – Ishingni uddalamoqchi boʻlsang, asboblaringni qayrab ol.⁷²

Xitoy tilidag chengyulardan foydalanish, oʻqitish, oʻrganish, tarjima qilish va ifoda etish jarayonlarida eng avvalo uning oʻzbek tilidagi muqobil versiasini topib qoʻya bilish va uning uslubiy hususiyatlarini togʻri oʻrganish zarur.

⁷⁰ Большой энциклопедический словарь. Языкознание. – М.: Большая Российская энциклопедия, 1998. С. 559.

⁷¹ 百科全书 www.baikc.cn

⁷² 徐宗才, 应俊玲. 外国人说熟语: 汉英对照. - 北京: 北京语言大学出版社, 2005.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Masalan: 我哥哥一心一意获自己的梦想 wo gege yi xin yi yi huo zi ji de meng xiang – Mening akam chin yurakdan o‘z orzulariga erishishni xohlaydi. Mazkur gapda 一心一意 frazeologik birlik hisoblanib butun vujudi bilan hohlash manosini bildiradi. Kontekstdan anglashilgan uslubiy xususiyat shundan iboratkiy, kontekstdagi ma’no bo‘rttirilib ko‘rsatilmoqda. O‘zbek tilida butun vujudi bilan so‘zi biror narsaga erishish yo‘lida qattiq urunish ma’nosini bildiradi. Mazkur kontekstda inson tana a‘zolari bilan bog‘liq iyeroglif 心 xin yurak hisoblanib o‘zbek tilida u vujud so‘ziga almashmoqda. Qo‘llanish darajasidan u sifatni ifoda etib kelmoqda va gap mazmunini kuchaytirib bermoqda. Fikri bilan ham qalbi bilan ham bir natsani o‘ylashga 一心一意 deyiladi.

小王看婷婷的时候他就动冻了心 - xiao wang kan ting ting de shi hou ta jiu dong dong le xin Siyaovan Tintinni ko‘rgan zahotiyuq yuragi jiz etti. Bu yerda 动冻了心 chengyuying manosi – bir ko‘rishda sevib qolish, yaxshi ko‘rib qolish ma’nolarini anglatadi. O‘zbek tilida bu ibora – yuragi jiz etish, yuragidan urib qolish singari talqin qilinadi. Yuqorida keltirib o‘tgan kontekstimizda esa biz his hayajonni chiroyli talqin qilish yo‘lini kuzatishimiz mumkin. Mazkur iborada ham inson tana a‘zolari bilan bog‘liq 心 yurak iyeroglifi ishlatilmoqda va uning o‘zbek tilidagi o‘rindoshi ham yurak bo‘lib kelmoqda.

张老师见小王时就缄口不言 - zhang lao shi jian xiao wang shi jiu jian kou bu yan Jang ustoz Siaowan bilan uchrashiboq labini jishlab qoldi. 缄口不言 iborasi biror narsadan qattiq hayratlanish ma’nosini ifodalaydi. Mazkur iboraning o‘zbek tilidagi muqobilligi yoqa tishlab qolish, labini tishlab qolish hisoblanadi. Mazkur misolimizdagi chengyu holatni kuchaytirib ko‘rsatib bermoqda. Ushbu kontekstda 口 og‘iz iyeroglifi qo‘llanmoqda uning o‘zbek tilidagi o‘rinini yoqa yoki lab egallamoqda.

O‘z o‘rnida o‘zbek tilidagi iboralarning ham xitoy tiliga tarjima qilganda bir muncha muammolarga duch kelinganligini kuzatishimiz mumkin. O‘zbek tilidagi tana a‘zolari bilan bog‘liq iboralarni xitoy tiliga tarjima qilganimizda, biz tana a‘zolariga bog‘liq bo‘lmagan erogliflardan ham foydalanishimiz mumkun.

Masalan: hayratdan yoqa tishlab qolmoq, mazkur ibora o‘zbek tilida hayratlanishning kuchli darajasini bildiradi mazkur iborani biz xitoy tilida 大吃一惊 da chi yi jing iborasi bilan ham qo‘llasak bo‘lad. Shu jumladan xitoy tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilganimizda ham xitoy tilida ishlatilayotgan chengyu tarkibidagi tana a‘zosi bilan bog‘liq iyeriglifni o‘zbek tilidagi aynan xuddi osha tana a‘zosi bilan bog‘liq kompanientini qo‘llab yasab bo‘lmaydi.

Masalan : 眼高手低 yan gao shou di iborasida, inson tana a‘zolaridan 眼 yan ko‘z, 手 shou qo‘l ma’nosini bildiradi. Mazkur iborani to‘gridan to‘g‘ri tarjima qiladigan bo‘lsak ko‘zi band qo‘li past degan ma’noni bildiradi. O‘zbek tilida bu iborani gapda qo‘llash kontekstni biroz chalkashtirishi mumkin. Bu iboraning asl ma’nosini quyidagicha talqin qilish mumkin “talabi juda baland-u lekin qobilyati bunga loyiq emas”. Mazkur



iborani o'zbek tiliga chiroyli tarjima qilishda biz o'z onatimizning imkoniyatlaridan to'g'ri foydalana olishimiz zarur va uning o'zbek tilidagi tarjimasi "boqqaning bitta tovuq maqtanishing olamni buzadi" singari talqin qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- A. Primov, X.Qodirova "Tilshunoslikning dolzarb muammolari" Urganch – 2019, 71 – bet
1. Большой энциклопедический словарь. Языкознание. – М.: Большая Российская энциклопедия, 1998. С. 559.
 2. 百科全书 www.baikc.cn
 3. 徐宗才, 应俊玲。外国人说熟语: 汉英对照。- 北京: 北京语言大学出版社, 2005.
 4. Хасанова, Ш. (2023). ФЕЪЛ ФРАЗЕОЛОГИЗМЛАРДА ВАРИАНТЛАНИШ (ХИТОЙ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИ МИСОЛИДА). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(23), 127-131.
 5. Хасанова, S. (2021). Rus tilshunosligida frazeologizmlarning tadqiqi: rus tilshunosligida frazeologizmlarning tadqiqi. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 2(7).
 6. Хасанова, S. (2022). ХИТОЙ ВА О 'ZBEK ТИЛЛАРИДА ФЕ'Л ФРАЗЕОЛОГИЗМЛАРИНИНГ АНТОНОМИЯ ХОДИСАСИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 29), 188-197.
 7. Khasanova, S. A. Q. (2022). Analysis of verb phraseological units in chinese. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(5), 280-283.
 8. Shaxzoda, X. The development of story of the XVI XVII century and the specific style of Pu Sungling's work. *Academicia an international multidisciplinary research journal*. DOI, 10, 2249-7137.
 9. Qizi, K. S. A. (2024). PHRASEOLOGICAL UNITS EXPRESSING THE SITUATION. *European International Journal of Philological Sciences*, 4(02), 16-18.
 10. qizi Khasanova, S. A. (2024). PHRASEOLOGISMS RELATED TO THE WAY OF LIFE OF A PERSON. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES*, 5(02), 19-22.
 11. qizi Khasanova, S. A. (2024). VERB PHRASEOLOGISMS EXPRESSING POSITIVE AND NEGATIVE FEELINGS IN UZBEKI AND CHINESE LANGUAGES. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 6(02), 22-24.

